

IJOBIY YUZGA PUTUR YETKAZUVCHI OMILLAR

Nurmatova Munisxon Mashrabovna

Farg'ona davlat universiteti, ingliz tili kafedrası katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10275276>

Goffman tomonidan taklif etilgan ijobiy va salbiy yuz tushunchalari ijobiy yoxud salbiy obro', imidj ma'nosida tushunilmaydi.

Ijobiy face (yuz)ga so'zlovchi tinglovchining ma'qullanish, qabul qilinish istagini rad etganda putur yetadi. Misol uchun, so'zlovchi tinglovchining biror fikrini tanqid qilsa, tinglovchi o'zini qabul qilinmagan, ma'qullanmagan his qiladi. Salbiy face (yuz)ga esa tinglovchining mustaqil bo'lish istagi rad etilishi bilan bog'liq holda putur yetadi. Masalan, so'zlovchi tinglovchiga buyruq bersa, tinglovchi o'zini nazorat qilinganday, boshqarilayotganday his qiladi¹.

Ijobiy face (yuz) yuzaga chiqishi uchun muloqot davomida so'zlovchi va tinglovchi bir-birlarini tushunishlari, yaxshi anglashlari, bir-birlarining fikrlarini qabul qila olishlari zarur. To'g'ri, insonlar turfa xil va ularning fikrlashlari, o'y-xayollari ham turlicha. Bir insonga ma'qul kelgan fikr boshqasiga yoqmasligi mumkinligi ham tabiiy hol. Lekin muloqot davomida bu narsani xushmuomalalik bilan yetkaza olish, suhbatdoshni qabul qila olish, qo'llab-quvvatlash ijobiy face yuzaga chiqishi uchun asosiy jihat sanaladi.

Salbiy face esa ko'p hollarda shaxsiy chegaralarga putur yetkazmaslik bilan belgilanadi. Misol uchun, duch kelgan insondan shaxsiy savol so'rash odobsizlik sanaladi. "Necha yoshdasiz?", "Nechta farzandingiz bor?" kabi savollarni berishdan oldin, "Sizdan bir narsani so'rasam maylimi?", "Shaxsiy savol bersam, javob bera olasizmi?" deb so'rab, ruxsat olgachgina shaxsiy savollarga o'tish ham xushmuomalalikning belgisi sanaladi.

O'zbek madaniyatida ko'p hollarda shaxsiy savollar so'rash o'ta qo'pol sanalmaydi, notanish insonlardan ham ismini, yoshini, kasbini, hatto daromadini ham so'rash mumkin. Lekin g'arbliklar uchun notanish insonlardan bunday savollar so'rash odobsizlik sanaladi va bunda salbiy facega putur yetkazuvchi FTA (face threatening acts – ijtimoiy yuzga putur yetkazuvchi aktlar) namoyon bo'ladi.

FTA (face threatening acts – ijtimoiy yuzga putur yetkazuvchi aktlar) haqida ham Brown va Levinson o'z tadqiqotlarida fikr bildirganlar. Mualliflar ijtimoiy yuzni saqlovchi strategiyalar bilan bir qatorda, unga putur yetkazuvchi holatlarni ham keltirib o'tganlar. Bunday aktlar so'zlovchi yoxud tinglovchining yuz xohishlariga qarshi amalga oshiriladi, ya'ni suhbatdosh o'z hurmatini, shaxsiy maydonini saqlashni istashiga qarshi amalga oshiriladigan harakatlar ijtimoiy yuzga putur yetkazuvchi aktlar sifatida belgilanadi.

Ijobiy yuz, yuqorida ta'kidlanganidek, so'zlovchining tinglovchi tomonidan ma'qullanishi, e'tirof etilishi bilan bog'liq. Ijobiy yuzga putur yetkazuvchi omillar, harakatlar esa illokutiv aktning tarkibiy qismi sanalgan ekspressiv akt orqali yuzaga chiqadi. Ekspressiv akt so'zlovchining his-tuyg'ularini ifoda etadi. Odatda illokutiv akt yashirin holda bayon qilingani holda, his-tuyg'ularni ochiq-oshkora, to'g'ridan-to'g'ri ifoda etish esa suhbatdoshni qabul qilmaslik, ma'qullamaslikni namoyon qiladi. Bu bilan esa suhbatdoshning ijobiy yuziga putur yetkaziladi.

Tinglovchining ijobiy yuziga xos FTA – putur yetkazuvchi aktlar quyidagilar bilan belgilanishi mumkin:

So'zlovchining tinglovchiga salbiy baho berishi:

¹ Lim, Tae-Sop. A new model of politeness in discourse. PhD dissertation. 1988. -p.3-4.

- ma'qullamaslik, tanqid qilish, ustidan kulish, shikoyat bildirish;
- qarama-qarshilikni namoyon qilish orqali amalga oshiriladi.

So'zlovchi tinglovchiga o'zining befarqligini namoyon etishi:

- nazorat qilib bo'lmaydigan emotsiyalarni ifoda etish orqali
- tabu yoki nomaqbul mavzular orqali
- tinglovchiga yoqmaydigan yomon, noxush xabarlarini berish orqali
- o'ta ta'sirchan, qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaruvchi, xavfli atmosfera yaratuvchi mavzular orqali
- suhbatda bahamjihat bo'lmaslik
- murojaat birliklarini atayin yoki boshqa maqsadlarda noto'g'ri qo'llash orqali amalga oshiriladi.

So'zlovchi tinglovchiga salbiy baho beradi. Aslida, ijtimoiy ijobiy yuzni saqlash maqsadida suhbatdoshga salbiy baho bermaslik talab etiladi. Lekin shunday holatlar bo'ladiki, bunda so'zlovchi suhbatdoshiga past yoxud salbiy baho beradi va bu ijobiy yuzga putur yetkazadi.

So'zlovchi tinglovchiga o'zining befarqligini namoyon etadi. Ijobiy yuzni saqlash maqsadida, qoidaga ko'ra, suhbatdoshni diqqat bilan tinglash, uning so'zlariga e'tiborli bo'lish talab etiladi. Suhbatdoshga o'zining befarqligini namoyon etish esa ijobiy yuzga putur yetkazuvchi harakat sifatida baholanadi.

References:

1. Brown, P. Politeness: Some Universals in Language Use / Brown Penelope, Levinson Stephen // The Discourse Reader, eds. A. Jaworski, N.Coupland. – London; New York : Taylor & Francis Group. Second edition; Routledge, 2006. – Chapter 22. – P. 311–323.
2. Brown, P. Politeness: Some Universals in Language Use / BrownPenelope, Levinson Stephen. – Cambridge : Cambridge University Press, 1987. –347
3. Elahe Goudarzi, Behzad Ghonsooly, Zahra Taghipour. POLITENESS STRATEGIES IN ENGLISH BUSINESS LETTERS: A COMPARATIVE STUDY OF NATIVE AND NON-NATIVE SPEAKERS OF ENGLISH//Psychology of Language and Communication 2015, Vol. 19, No. 1
4. Mashrabovna, N. M. (2023). THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE LINGUISTIC PHENOMENON OF LACUNARITY. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(3), 310-315.
5. Akmaljonovna, N. X., & Mashrabovna, N. M. (2023). SPORT TERMINLARINI SEMANTIK VA PRAGMATIK JIHATDAN O 'RGANISHDA TARJIMANING AHAMIYATI. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 6(5), 287-291.
6. Akbarova, Q., & Nurmatova, M. (2023). INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA "OG'IZ" SO'ZI ORQALI IFODALANGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLARINING STRUKTURAL-GRAMMATIK XUSUSIYATI. Центральнoазиатский журнал образования и инноваций, 2(5 Part 2), 92-95.
7. Murotovna, Q. M., & Mashrabovna, N. M. (2023). ASAR KOMPOZITSIYASIDA BADIY NUTQ FUNKSIYASI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 21(4), 123-126.
8. Акбарова, Қ., & Нурматова, М. (2023). СОМАТИЗМ ТУШУНЧАСИ ВА «ОҒИЗ» СЎЗИ ОРҚАЛИ ИФОДАЛАНГАН ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАРНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ

ТАДҚИҚИ. Бюллетень студентов нового Узбекистана, 1(5 Part 2), 75-77.

9. Mashrabovna, N. M., & Xolmatjon o'g'li, T. R. (2023). OAV TILI OMMA ONGIGA TA'SIR ETUVCHI VOSITA SIFATIDA. PEDAGOG, 6(5), 392-395.

10. Azamovna, M. N., & Mashrabovna, N. M. (2023). THE VERBALIZER" GUEST" AS A REFLECTION OF THE PECULIARITIES OF THE WORLD PICTURE OF THE ENGLISH PEOPLE. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 12, 104-106.

11. Mashrabovna, N. M. (2023). INGLIZ VA O'ZBEK DIPLOMATIK TERMINOLOGIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(5), 765-772.

12. Mashrabovna, N. M. (2023). ACTUAL STRUCTURE IN THEORETICAL GRAMMAR. DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY", 14(1).

13. Usmanova, G., Nurmatova, M., & Mirzayeva, D. (2023). XUSHMUOMALALIKDA GENDER XUSUSIYATLARINING O'RNI. Бюллетень студентов нового Узбекистана, 1(5 Part 2), 94-95.

14. Nurmatova, M., Ergashov, U. B., & Ergasheva, S. (2023). PRAGMALINGVISTIKANING SHAKLLANISHI VA O'RGANILISHI. Бюллетень педагогов нового Узбекистана, 1(5 Part 2), 23-24.

15. Нурматова, М., & Усманова, Г. (2023). ОСНОВНЫЕ ВИДЫ ЯЗЫКОВОЙ ВЕЖЛИВОСТИ. Бюллетень педагогов нового Узбекистана, 1(5 Part 2), 64-66.

16. Mashrabovna, N. M. (2023). MEDIAMATN TARJIMASI MUAMMOLARI. Научный Фокус, 1(1), 587-589.

17. Mashrabovna, N. M. (2023). Principles of Expressing Politeness in Formal Letters. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(6), 217-221.

18. Mashrabovna, N. M. (2023). Significance of Politeness in Communication. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(7), 29-33.

19. Mashrabovna, N. M. (2022). MAIN TYPES OF LANGUAGE POLITENESS. PEDAGOGS jurnali, 20(2), 50-53.

20. Mashrabovna, N. M. (2022). NOVERBAL MULOQOTNI IFODALOVCHI VOSITALAR. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 10(11), 5-7.

21. Муротовна , Қ. М. ., & Машрабовна , Н. М. . (2022). Бадий Нутқ Ва Бадий Тасвир. Miasto Przyszłości, 28, 445-447.

22. Шабан Абдулжаббар Кадим Махди. Средства вербализации вежливости в деловом дискурсе: универсальное и культурно-специфическое (на материале английского, арабского и русского языков)// <https://www.dissercat.com/content/sredstva-verbalizatsii-vezhливosti-v-delovom-diskurse-universalnoe-i-kulturno-spetsifichesko>